

BIZNES NIZOLARINI HAL ETISHDA ARBITRAJ VA MEDIATSIYA INSTITUTLARINING HUQUQIY ASOSLARI

Ermatov Shohabbos Ro'ziboy o'g'li

Ijtimoiy fanlar fakulteti 1- kurs Biznes huquqi yo'nalishi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biznes subyektlari o'rtasidagi nizolarni muqobil hal etish (ADR) tizimining ikki ustuni — arbitraj va mediatsiya institutlarining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Muallif O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xalqaro tajribani qiyosiy o'rganib, ushbu institutlarning biznes muhitini sog'lomlashtirishdagi rolini ochib beradi. Maqolada milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *biznes nizolari, muqobil nizo, arbitraj, mediatsiya, hakamlik sudi, TIAC, huquqiy asos, samaradorlik.*

Annotation: *This article analyzes the legal foundations of two key pillars of the Alternative Dispute Resolution (ADR) system in business disputes — arbitration and mediation institutions. The author comparatively examines the national legislation of the Republic of Uzbekistan and international experience, revealing the role of these institutions in improving the business environment. The article also proposes scientific recommendations for improving national legislation.*

Keywords: *business disputes, alternative dispute resolution, arbitration, mediation, arbitral tribunal, TIAC, legal framework, efficiency.*

Аннотация: *В данной статье анализируются правовые основы двух ключевых институтов системы альтернативного разрешения споров (ADR) между субъектами предпринимательства — арбитража и медиации. Автор на основе сравнительного изучения национального законодательства Республики Узбекистан и международного опыта раскрывает роль данных институтов в оздоровлении бизнес-среды. В статье также выдвигаются научные предложения по совершенствованию национального законодательства.*

Ключевые слова: *бизнес-споры, альтернативное разрешение споров, арбитраж, медиация, третейский суд, TIAC, правовая основа, эффективность.*

KIRISH

O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, investitsiya iqlimini yaxshilash sud-huquq islohotlarining bosh mezonidir. Biznes olami tezkorlik, konfidentsiallik (sir saqlanishi) va moliyaviy tejamkorlikni talab qiladi. An'anaviy davlat sudlari (iqtisodiy sudlar) yuklamaning ko'pligi sababli bu talablarga har doim ham to'liq javob bera olmaydi. Shu bois, biznes nizolarini hal etishda arbitraj (nodavlat sudlov) va mediatsiya (tinchlik bitimi) institutlarining huquqiy asoslarini tadqiq etish nihoyatda dolzarbdir.

Biznes muhitida iqtisodiy nizolarni tezkor va konfidentsial hal etish muhim. Davlat sudlarining yuklamasi ortgani sababli, muqobil nizo yechimlari (arbitraj va mediatsiya) huquqiy asoslarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Mamlakatimizda sohaga oid qonunlar qabul qilingan bo'lsa-da, hakamlik sudlari qarorlarini ijro etish va mediatsiya bitimlarining majburiy bajarilishini ta'minlash huquqiy mexanizmlari hamon mukammal emas.

Tadqiqotning maqsadi. Biznes nizolarida arbitraj va mediatsiya institutlarining huquqiy muammolarini aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar berishdan iborat.

Asosiy qism: O'zbekistonda biznes nizolarini arbitraj usulida hal etish tizimi ikki tarmoqqa bo'lingan. Birinchisi — milliy tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarni ko'ruvchi ichki hakamlik sudlari bo'lsa, ikkinchisi — tashqi iqtisodiy nizolarni hal qiluvchi xalqaro tijorat arbitrajidir. Ularning huquqiy poydevori "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi (2006-yil) hamda "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi (2021-yil) qonunlar bilan belgilanadi [2, 3-4- b.].

2021-yilda qabul qilingan qonun UNCITRAL namunaviy qonuniga moslashtirilgani tufayli xorijiy investorlar uchun Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) orqali o'z huquqlarini himoya qilish imkonini berdi [8, 14-b.]. Biroq, ichki iqtisodiy munosabatlarda hakamlik sudlarining amaliy ta'siri hamon juda past. Bunga asosiy sabab — Iqtisodiy protsessual kodeksning 211, 222-moddalarida hakamlik sudi qarorlarini ijroga qaratish uchun davlat sudidan ijro varaqasi olish tartibi murakkab qibly qo'yilganligidir [1, 211, 222-moddalar]. Davlat sudlari aksar hollarda rasmiyatchilik sabablar bilan hakamlik sudi qarorlarini bekor qilmoqda yoki ijro varaqasi berishni oylab kechiktirmoqda [6, 84-b.]. Oqibatda tadbirkorlar hakamlik sudiga vaqt tejash uchun borib, yakunda davlat sudlarida ikki barobar ko'p vaqt yo'qotmoqda [5, 42-b.].

"Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun 2018-yilda kuchga kirgan bo'lsa-da, biznes subyektlari ushbu institutdan deyarli foydalanmayapti [3, 4-b.]. Qonuniy jihatdan mediatsiya nizoni davlat sudlariga qaraganda tezroq va tomonlarning hamkorlik aloqalarini saqlagan holda yechishga xizmat qilishi kerak [7, 18-b.]. Lekin amaliyotda jiddiy huquqiy bo'shliq mavjud: ushbu Qonunning 27-moddasiga binoan, mediatsiya kelishuvi tomonlar uchun ORTIQCHA to'siqsiz oddiy fuqarolik-huquqiy bitim (shartnoma) kuchiga ega [3, 27-modda]. Agar bitim imzolangan, qarzdor tomon majburiyatni bajarishdan bosh tortsa, kreditor to'g'ridan-to'g'ri Majburiy ijro burosiga (MIB) murojaat qila olmaydi. U shartnoma shartlari buzilganligi vaji bilan yangitdan davlat sudiga ariza berishga, davlat boji to'lashga va sud jarayonini boshidan boshlashga majbur. Huquqiy oqibatning kafolatlanmaganligi biznesni mediatsiya institutidan uzoqlashtirmoqda [7, 21-b.]. Biznes nizolarida bu ikki institut bir-birini inkor qilmaydi. Arbitraj — bu uchinchi shaxs (arbitr) tomonidan majburiy qaror chiqarish tizimi, ya'ni sudlovning muqobil shaklidir [6, 105-b.]. Mediatsiya esa uchinchi shaxs (mediator)

yordamida tomonlarning o'zlari ixtiyoriy qarorga keladigan muzokara jarayonidir [7, 24-b.].

Xalqaro amaliyotda ushbu ikki mexanizmning kombinatsiyasi, xususan "Arb-Med-Arb" (Arbitraj - Mediatsiya - Arbitraj) ssenariysi keng qo'llaniladi [8, 32-b.]. Nizo arbitrajga kelganda, jarayon vaqtincha to'xtatilib, tomonlarga mediator tavsiya etiladi. Kelshuvga erishilsa, ushbu kelishuv arbitraj qarori sifatida rasmiylashtiriladi va unga majburiy ijro kuchi beriladi [2, 45-modda]. Biznes huquqi tizimida esa ushbu ikki institut tizimli ravishda bir-biri bilan bog'lanmagan, har biri alohida-alohida va yopiq holda ishlaydi [5, 59-b.].

Tahlil va natijalar: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining (IPK) 27-bobi hakamlik sudlarining qarorlarini majburiy ijro ettirish tartibini belgilaydi [1, 27-bob]. Biroq, amaldagi IPK 212-moddasi va "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 47-moddasi qiyosiy tahlil qilinganda, amaliyotda jiddiy protsessual to'siqlar ko'zga tashlanadi [1, 212-modda; 4, 47-modda]. Davlat sudlari (iqtisodiy sudlar) tomonidan hakamlik sudi qaroriga ijro varaqasi berishni rad etish uchun asoslar ro'yxati keng talqin qilinmoqda. Xususan, nizolashayotgan tomonlardan birining "men hakamlik kelishuvini imzolaganimni eslay olmayman" yoki "bildirishnoma vaqtida yetib kelmadi" qabilidagi subyektiv vajlari iqtisodiy sudlar tomonidan hakamlik sudi qarorlarini bekor qilishga yetarli asos sifatida qabul qilinmoqda [6, 112-b.].

Xalqaro tijorat arbitraji (TIAC) yo'nalishida ham muammolar mavjud. "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasida arbitraj qarorini tan olish va ijro etishni rad qilish asoslari belgilangan [2, 45-modda]. Ushbu normalar 1958-yildagi Nyu-York konvensiyasiga mos bo'lsa-da, milliy sudlar ko'p hollarda "ommaviy tartibga (public policy) zidlik" prinsipini juda keng va noaniq talqin qilmoqdalar [8, 19-b.]. Bu esa xorijiy investorlar chiqargan arbitraj qarorlarining O'zbekiston hududida ijro etilishini kechiktirmoqda va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorlik reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [5, 74-b.].

Iqtisodiy sudlar yuklamasini tahlil qiladigan bo'lsak, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik (qarzdorlik, yetkazib berish shartlari) bilan bog'liq nizolar umumiy ishlarning qariyb 60-70 foizini tashkil qilami [7, 31-b.]. Ushbu nizolarning katta qismini mediatsiya jarayoni orqali hal qilish imkoniyati mavjud. Biroq, o'tkazilgan tahlillar "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun normalarining amaliyotda "o'lik norma"ga aylanib borayotganini ko'rsatadi [5, 88-b.]. Muammo — mediatsiya kelishuvining huquqiy oqibatsizligida. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, iqtisodiy sud protsessi davomida erishilgan mediatsiya kelishuvi sud tomonidan tasdiqlanadi va ajrim bilan rasmiylashtiriladi (bu holatda ijro kafolati bor) [1, 131-modda]. Ammo sudgacha (sudga bormasdan turib) professional mediator huzurida tuzilgan bitim hech qanday protsessual kuchga ega emas [3, 27-modda]. Tomonlardan biri shartni buzsa, ikkinchi tomon baribir nizoning boshidan davlat sudida da'vo tartibida qo'zg'atishga majbur [7, 35-b.]. Bu zanjir iqtisodiy jihatdan samarasizdir: tadbirkor avval mediator xizmatiga pul to'laydi, vaqt yo'qotadi, natija bo'lmagach, davlat

sudiga qaytadan davlat boji (da'vo bahosining muayyan foizi miqdorida) to'lab ariza beradi [5, 91-b.].

O'zbekistonda biznes nizolarini muqobil hal etish tizimi yaxlit doktrinaga ega emas. Hakamlik sudlari, xalqaro arbitraj va mediatsiya alohida-alohida, tarqoq qonunlar bilan tartibga solingani sababli, ular o'rtasida o'zaro integratsiya (masalan, mediatsiya bitimini arbitraj qarori sifatida rasmiylashtirish mexanizmi) mavjud emas. Ijro mexanizmining zaifligi: Biznes subyektlari uchun muqobil institutlarning jozibador bo'lmashligining bosh sababi — yakuniy hujjatning (qaror yoki kelishuvning) majburiy ijrosini ta'minlashda davlat sudlariga qaram bo'lib qolinganidir. Iqtisodiy protsessual qonunchilikda davlat sudlarining muqobil sudlov organlariga (arbitrajga) nisbatan "yuqori turuvchi va nazorat qiluvchi" sifatidagi mavqeyi haddan tashqari kuchli belgilangan. Bu esa arbitrajning mustaqillik va yakuniylik tamoyillarini cheklab qo'ymoqda.

Xulosa va takliflar: Biznes nizolarini hal etishda arbitraj va mediatsiya institutlarining huquqiy asoslarini hamda ularni qo'llash amaliyotini tadqiq etish jarayonida shakllangan xulosalar va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar quyidagilardan iborat:

Amaldagi iqtisodiy protsessual qonunchilikda davlat sudlarining ichki hakamlik sudlari faoliyati ustidan nazorat funksiyasi haddan tashqari kengaytirib yuborilgan. Bu holat arbitrajning mustaqillik va tezkorlik tamoyillariga putur yetkazib, biznes subyektlarining ushbu institutga bo'lgan ishonchini kamaytirmoqda.

"Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunda sudgacha bo'lgan mediatsiya bitimlarining majburiy ijrosini ta'minlash mexanizmi nazarda tutilmagan. Kelshuvning huquqiy oqibatsizligi tadbirkorlarni ushbu samarali vositadan foydalanishdan uzoqlashtirmoqda va davlat iqtisodiy sudlariga tushadigan yuklamani kamaytirishga yo'l bermayapti.

Milliy huquq tizimida nizolarni muqobil hal etish (ADR) mexanizmlari tarqoq va bir-biri bilan bog'lanmagan holda amal qilmoqda. Xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan kombinatsiyalashgan tizimlar (masalan, "Arb-Med-Arb") uchun huquqiy platforma yaratilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksiga hamda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasiga qo'shimcha kiritish lozim. Unga ko'ra, professional mediator ishtirokida tuzilgan va notarial tartibda tasdiqlangan mediatsiya kelishuvlariga, agar tomonlardan biri uni bajarishdan bosh tortsa, yangitdan sudlashmasdan, to'g'ridan-to'g'ri ijro hujjati (ijro varaqasi) berish mexanizmini qonuniy mustahkamlash zarur. Bu amaliyot biznes uchun vaqt va moliyaviy xarajatlarni keskin tejaydi.

IPKning 149-moddasiga (Da'vo arizasining shakli va mazmuni) o'zgartish kiritib, korporativ nizolar hamda da'vo bahosi kichik bo'lgan (masalan, bazaviy hisoblash munosabatining muayyan barobarigacha bo'lgan) shartnomaviy nizolar bo'yicha davlat sudiga murojaat qilishdan oldin majburiy tartibda mediatsiya jarayonidan o'tganlik

haqidagi hujjatni ilova qilish talabini belgilash lozim. Bu chora iqtisodiy sudlar yuklamasini kamida 30 foizga kamaytirish imkonini beradi.

Eskirgan "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi (2006-yil) hamda yangi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi (2021-yil) qonunlarni birlashtirib, xalqaro UNCITRAL standartlari asosida yagona O'zbekiston Respublikasining Arbitraj Kodeksini ishlab chiqish lozim. Ushbu Kodeksda ichki hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlar uchun yagona protsessual qoidalar hamda davlat sudlarining aralashuvini maksimal darajada cheklovchi normalar belgilanishi shart.

Qonunchilikda arbitraj muhokamasi davomida tomonlar mediator ko'magida kelishuvga erishgan taqdirda, ushbu kelishuvni arbitraj sudi qarori (Consent Award) sifatida rasmiylashtirish va unga Nyu-York konvensiyasi doirasida xalqaro miqyosda majburiy ijro etilish kuchini berish tartibini aniq belgilash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi // Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni, 16.02.2021-y. // Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 03.07.2018-y. // Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni, 16.10.2006-y. // Lex.uz.
5. Esanova Z.N. O'zbekiston Respublikasida nizolarni muqobil hal etish (ADR) tizimini rivojlantirishning huquqiy muammolari: Monografiya. – Toshkent: TDYUU, 2020.
6. Otaxonov F.X. Hakamlik sudlarining huquqiy asoslari va faoliyatini tashkil etish muammolari. – Toshkent: "Adolat", 2017.
7. Sultonova M.A. Biznes nizolarini hal etishda mediatsiya institutining fuqarolik-huquqiy tabiati: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.
8. UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006. United Nations.